

## HUDUDLARDA ISHBILARMONLIK MUHITINI YAXSHILASH, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISHNI RAG'BATANTIRISH USULLARI

*Baytanov O'ralboy Mirzaqul o'g'li*

*Jizzax Politexnika instituti (Jizzax, O'zbekiston)*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda hududlarda qulay ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu sababli oilalarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalg qilishga, yosh tadbirkorlarning istiqbolli g'oyalari va loyihalari ro'yobga chiqishiga hamda shu asosda aholining bandligi ta'minlanishiga zamin yaratilmoqda.

**Kalit so'zlar:** tadbirkorlik, kichik biznes, ishbilarmonlik muhiti.

Ishbilarmonlik muhiti mamlakatning ijtimoiy rivojlanishining asosini tashkil etadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki mamlakat iqtisodiyotini izchil va barqaror rivojlantirish, aholining hayot darajasini yuksaltirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni beqiyosdir. Tadbirkorlar uchun qanchalik qulay ishbilarmonlik muhiti yaratilsa, xalq moddiy va ma'naviy jihatdan shunchalik boy bo'ladi. Shu o'rinda ishbilarmonlik muhitiga bevosita va bilvosita ta'sir qiladigan omillarni ko'rib chiqsak.

Ishbilarmonlik muhiti tadbirkorlarning o'ziga bog'liq bo'limgan tashqi muhit va bevosita tadbirkorlarning o'zlarini tomonidan shakllantiriladigan ichki muhitiga bo'linadi.

Tadbirkorlikning tashqi muhiti – bu tabiiy, demografik, iqtisodiy, ekologik, ilmiy-texnikaviy, qonunchilik, milliy va boshqalar kabi elementlarning keng doirasini o'z ichiga oladi. Jumladan:

1. Huquqiy omil - bu jamiyat tomonidan tadbirkorlar uchun o'rnatilgan biznes sohasidagi o'yin qoidalari.
2. Iqtisodiy omillar - iste'mol bozori, to'lov qobiliyati, talab shartlari va ushbu bozorning sig'imini tashkil qiladi.
3. Ilmiy-texnikaviy omillar - tadbirkorlikning muayyan turida ilmiy-texnika taraqqiyoti darajasini aks ettiradi.
4. Ijtimoiy omillar - ijtimoiy-axloqiy ehtiyojlar nuqtai nazaridan ta'sir qiladigan omillar.
5. Ekologik omillar jamiyat va tabiat o'rtaсидаги munosabatlarni ifodalaydi.
6. Siyosiy omillar muhitni shakllantirish omili sifatida qaralsada muayyan biznes sharoitlariga ta'siri odatda boshqa omillar orqali namoyon bo'ladi.

Tadbirkorlikning ichki muhiti butunlay tadbirkorga bog'liq bo'lib, uning faoliyat yuritishi uchun shart-sharoitlarining yig'indisini ifodalovchi elementlarning doirasini keng qamrab oladi. Tadbirkorlikning



ichki muhitini shakllanishida odatda uning ikkita tarkibiy qismi **vaziyat omillari** va **ichki muhit elementlari** ta'sir qiladi.

**Ichki muhit elementlari** - bu maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan korxona tarkibiy qismlari: marketing, tadqiqot va ishlanmalar (yangi mahsulot yoki texnologiyani yaratishda yangi bilim olish va amaliy qo'llashga qaratilgan ishlar majmui), personallar, moliya, ishlab chiqarish va b. Ishlab chiqarish, o'z navbatida, yetkazib berish, ishlab chiqarish va sotishni o'z ichiga oladi. Ishlab chiqarish quyidagi o'zaro bog'liq elementlardan iborat: mehnat ob'ektlari, mehnat vositalari, mehnat, funktsiyalar va tuzilma. Tadbirkorlik tashkiloti ichki muhitining **vaziyat omillari** - bu tashqi muhitni tahlil qilish asosida tadbirkor tomonidan yaratiladigan va tadbirkorlik tashkiloti faoliyatining chegaraviy shartlarini aniqlash uchun foydalaniladigan ichki o'zgaruvchilar. Asosiy vaziyat omillariga quyidagilar kiradi: biznes maqsadlari; tadbirkorlik faoliyati etikasi va madaniyati; kompaniya ichidagi tadbirkorlik.


**Ishbilarmonlik muhiti Xalqaro reyting ko'rsatkichlarini yaxshilash, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yuzasidan olib borilayotgan ishlar.** Ishbilarmonlik muhiti - Jahon Banki va Xalqaro Moliya korporatsiyasining "Doing business" hisobotida 190 ta davlatdagi vaziyat tahlili asosida biznesning 10 ta yo'nalishi bo'yicha o'rganiladi va qonunchilikdagi o'zgarishlar baholanib, reyting ko'rsatkichi shakllantiriladi.

Ishbilarmonlik muhiti reytingi quyidagilar - Korxonani ro'yxatdan o'tkazish; Qurilishga ruxsat olish; Elektr ta'minoti tizimiga ularish; Mulkni ro'yxatdan o'tkazish; Kredit olish; Minoritar investorlarni himoya qilish; Soliqqa tortish; Xalqaro savdo; Shartnomalar ijrosi va To'lovga layoqatsizlikni hal qilish bo'yicha ko'rsatkichlar tahlili asosida shakllantiriladi.

Jahon banki ekspertlarining fikricha, O'zbekistonda ishbilarmonlik muhiti yaxshilash borasidagi asosiy islohotlar quyidagilardan iborat:

- Aktsiyadorlarning huquqlari va rolini kengaytirish hamda asosiy korporativ qarorlar qabul qilish, mulkchilik va nazorat tuzilmasini aniqlashtirish, korporativ shaffoflikni oshirish orqali minoritar investorlarni himoya qilishni kuchaytirish;
- Soliqlarni unifikatsiya qilish orqali soliqqa tortishni soddalashtirish;
- Tavakkalga asoslangan bojxona tekshiruvi mexanizmini joriy etish orqali xalqaro savdoni osonlashtirish, shuningdek, import hujjatlarini yengillashtirish;
- Shartnomalarni ijrosini ta'minlashda Mediatsiya qonunidan foydalanish, shuningdek, tomonlarni nizolarni mediatsiya yo'li bilan hal qilishga undaydigan moddiy rag'batlantirish vositalarini yaratish.





### **1-rasm. “Doing business” hisobotida O‘zbekistonda ishbilarmonlik muhitini ko‘rsatkichi**

“Doing business” hisobotiga ko‘ra 2016-2020-yillarda Ishbilarmonlik muhitini xalqaro reytingi 5 yillik dinamikasiga ko‘ra O‘zbekistonning ijobili o‘zgarishini ko‘rshimiz mumkin. Bu ko‘rsatkichni 10 yillik keyingi 2010-2020-yillar mobaynida o‘zgarish dinamikasini o‘rganadigan bo‘lsak bu ko‘rsatkichda 2010-yilda 190 mamlakat ichida 150-o‘rinda turgan bo‘lsak 2020- yilda 69-o‘ringa o‘zgargan. O‘zbekiston xalqaro reytingida deyarli ikki barobar yuqoriga ko‘tarildi. Bu tadbirkorlikni rivolantirish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga qartilgan siyosatni to‘g‘ri olib borilayotganidan dalolat beradi.

O‘zbekistonda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ularning faoliyatini huquqiy kafolatiga, chet el investorlarining erkin faoliyat yuritishini ta’minlashga qaratilgan zarur huquqiy asoslar yaratilib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari, shu qatori chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar uchun soliq, bojxona va boshqa sohalarda bir qator qulayliklar va afzalliliklar berilmoqda. Shuning bilan birga yaratilgan biznes muhitini o‘rganish yuzasidan tegishli institutlar tashkil qilingan. Jumladan,

- Prezident Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi;
- Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti;
- “Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish Markazi ilmiy-tadqiqot muassasasi;
- "BUSINESS INDICATOR“ Hududlarda tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasi ko‘rsatkichlarini hisoblash va baholash bo‘yicha avtomatlashtirilgan onlayn axborot tizimi.

Ishbilarmonlik muhitini baholash mezonlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri Hukumat qarorida ko‘rsatilgan bo‘lib, Savdo-sanoat palatasi, Biznes ombudsman, Davlat soliq qo‘mitasi va boshqa tashkilotlar bilan kelishilgan



holda olib boriladi.

Masalan, Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (Markaz) respublikadagi korxonalar o‘rtasida navbatdagi so‘rovnomanı o‘tkazdi. Sentyabr oyida ikki yo‘nalish bo‘yicha o‘tkazgan so‘rovida 1500 dan ortiq korxona ishtirok etdi. Biznesning hozirgi holatini sifatli baholash va tadbirkorlarning kelgusi uch oy davomida o‘z biznesini rivojlantirish istiqbollariga bo‘lgan umidlari o‘rganildi.

2022-yil avgust oyida ishbilarmonlik muhitining jamlangan ko‘rsatkichi o‘tgan oyga nisbatan 11 punktga yaxshilanib, 64 punktni tashkil etdi, bu esa mamlakatdagi ishbilarmonlik muhitining holatini ijobjiy deb baholandi. Sentyabr oyida ishbilarmonlik muhitining jamlangan ko‘rsatkichi o‘tgan oyga nisbatan 1 punktga yaxshilandi va 65 punktni tashkil etdi, bu esa mamlakatdagi ishbilarmonlik muhitini ijobjiy deb baholaydi. Jamlangan indeksning yaxshilanishiga qishloq xo‘jaligida (74 p) va qurilishda (57 p) ishbilarmonlik muhiti ko‘rsatkichlarining ijobjiy dinamikasi sezilarli ta’sir ko‘rsatdi, bu avgust oyiga nisbatan mos ravishda 9 va 5 punktiga o‘sishini ko‘rsatdi.

Barcha respondentlar orasida 50%i ularning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda hech qanday to‘siqlar yo‘qligini ta’kidladilar. Shu bilan birga, korxonalar vakillari o‘z bizneslarini qo‘llab-quvvatlash zarurligini ta’kidladilar. Tadbirkorlarni eng ko‘p tashvishga solayotgan muammolar (*kamayish tartibida*) moliyaviy manbalardan foydalanish, ikkinchi o‘rinda soliq ma’muriyati, soliq stavkalarining yuqoriligi, yer ajratish, xomashyo yetishmasligi, suv ta’minoti, muhandislik kommunikatsiyalari bilan bog‘liq muammolar va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida qayd qilingan ishbilarmonlik muhiti begilovchi indikator ko‘rsatkichlarini yuqori darajaga ko‘tarilishini quyi tizimda ta’millasak, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari faoliyati gullab yashnaydi. Yangi tadbikorlik sub’ektlari soni oshadi, mavjudlarini ishi kengayib boradi va chekka hududlardagi tengsizlik barham topadi hamda tadbikorlarda yangi eksport bozorlariga kirib borishga imkon yaratiladi. Bu pirovard natijada yangi ish o‘rinlari paydo bo‘ladi va aholi daromadlari oshadi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi.
2. Anvar Qobilov, Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi sektor mudiri "Iqtisodiy sharh" №8/2022
3. Feruz Rahimov Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi, <https://review.uz/oz/post/har-bir-oila-tadbirkor-dasturi-effekti>
4. RAQAMLI, I., & ELEKTRON, T. O’ZBEKİSTON İQTİSODİYOTINI RİVOJLANTIRISHDA RAQAMLI İQTİSODİYOTNING AHAMIYATI. *ЭКОНОМИКА*, 36-38.
5. Baytanov, O. R. (2017). Ўзбекистонда солиқ тизимини такомиллаштириш орқали оиласий тадбиркорликни янада ривожлантириш. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, (6), 62-68.
6. Uglu, R. S. S. (2021). Analysis of economic reforms increasing labour resources in the republic of uzbekistan. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(11), 390-396.
7. Расулов, Ш. (2022). ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА МЕҲНАТ РЕСУРСЛАРИНИНГ ИШ БИЛАН БАНДЛИГИНИНГ ЖОРИЙ ҲОЛАТИ ТАҲЛИЛИ. *Экономика и образование*, 23(2), 227-232.
8. Расулов, Ш. (2022). МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МЕҲНАТ РЕСУРСЛАРИНИНГ ЎРНИ ВА РОЛИ. *Экономика и образование*, 23(4), 149-153.



9. Расулова, Ш. Ф. (2021). ЎЗБЕКИСТОНДА БАНДЛИК МУАММОСИ. ИШСИЗЛАРНИ ИЖТИМОЙ ҲИМОЯ ҚИЛИШ. *Global Science and Innovations: Central Asia* (см. в книгах), 3(7), 22-25.
10. Расулова, Ш. Г. (2019). ВАЖНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕР ПО ПОВЫШЕНИЮ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (3-8), 95-100.
11. Расулова, Ш. Ф. (2019). ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ПОЛИТИКА ГОСУДАРСТВА И ПОВЫШЕНИЕ ЕЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ, НАПРАВЛЕННЫЕ НА ПОВЫШЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (3-8), 90-95.
12. Rasulova, S. G., & Obidova, F. Y. (2019). ISSUES OF SMALL BUSINESS DEVELOPMENT. *Theoretical & Applied Science*, (9), 426-429.
13. Rasulova, S., & Jabborova, Z. (2019). PRINCIPAL DIRECTIONSON THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP. *International Finance and Accounting*, 2019(3), 18.
14. Расулова, Ш. Г. (2020). ПРИВЛЕЧЕНИЕ ИНВЕСТИЦИЙ. *Экономика и социум*, (2), 316-319.
15. Якубов, С. Ф., Гафуров, А. Т., & Расулова, Ш. Г. (2015). Вопросы активизации деятельности коммерческих банков в финансировании инвестиций. *Молодой ученый*, (3), 551-556.
16. uglu, R. S. S. . (2023). CRITERIA AND CHARACTERISTICS OF THE FORMATION OF LABOR RESOURCES IN A MODERN MARKET ECONOMY. ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI, 2(1), 56–60.
17. Файбуллаевна, Р. Ш. ., & ўғли, Р. Ш. Ш. . (2023). ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА МЕҲНАТ РЕСУРСЛАРИ БАНДЛИГИГА ҚАРАТИЛГАН ДАВЛАТ СИЁСАТИ. ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI, 2(1), 74–76.
18. Keldiyorovich, O. I., & Sharof o‘g‘li, R. S. (2023). PUL OQIMLARI TO‘G‘RISIDAGI HISOBOTLARNI TUZISHGA QO ‘YILGAN TALABALAR. TA’LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(1), 276-283.

